




# JOURNAL OF CONTEMPORARY WORLD STUDIES

VOLUME | 3    ISSUE | 7    DECEMBER    2025



AN ACADEMIC PLATFORM FOR IN-DEPTH  
ANALYSIS OF THE CONTEMPORARY WORLD

VOLUME | 3 ISSUE | 7 | DECEMBER | 2025



JCWS

## ITLARDA KO‘ZNING UMUMIY KASALLIKLARI: ETIOPATOGENEZ, DAVOLASH VA PROFILAKTIKA CHORALARI


<sup>1</sup> *Avezimbetov Shavkat*, <sup>2</sup> *Kunisov Baurijan Maxsetbaevich*, <sup>3</sup> *Yesboganova Maryam Maksetbay qizi*

<sup>1,2</sup> Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

<sup>3</sup> Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, magistrant

e-mail: [avezimbetovshovkat@gmail.com](mailto:avezimbetovshovkat@gmail.com)

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-2384-1692>



### ANNOTATION:

Itlarda ko‘z kasalliklari klinik veterinariya amaliyotida keng tarqalgan va hayvonlarning vizual funksiyasiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadigan patologiyalar hisoblanadi. Ushbu maqolada itlarda ko‘z kasalliklarining etiopatogenezi, klinik belgilar, diagnostik usullar, davolash protokollari va profilaktika choralari batafsil tahlil qilindi. Tadqiqotlar asosida kasalliklarning paydo bo‘lish mexanizmi, davolash samaradorligi va profilaktika strategiyalari yoritiladi. Maqola veterinariya jarrohligi nuqtai nazaridan amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

### KEYWORDS:

*it, ko‘z kasalliklari, etiopatogenezi, davolash, profilaktika, veterinariya oftalmologiyasi.*

**Accepted Date:**

December 15, 2025,

**Published Date:**

December 25, 2025

**Journal Website:** <https://d-pressa.com/index.php/jcws/>

### License



This work is licensed under a [Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/).

## Kirish

So'nggi yillarda uy hayvonlari, xususan itlarning sog'lig'ini saqlash masalasi O'zbekiston veterinariya amaliyotida alohida e'tiborga olinmoqda. Itlar organizmidagi kasalliklar orasida ko'z kasalliklari muhim o'rin tutadi, chunki ular hayvonning ko'rish qobiliyatini pasaytirish, hatto to'liq ko'rlikka olib kelishi mumkinligi sababli hayvonning umumiy hayot sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'zning murakkab anatomik tuzilishi, yuqori sezuvchanligi va tashqi omillarga bevosita ta'sirchanligi tufayli, turli yallig'lanish, infeksiyon va travmatik jarayonlar tez-tez uchrab turadi.

Itlarda eng ko'p uchraydigan ko'z kasalliklari qatoriga kon'yunktivit, keratit, blefarit, entropion, ektropion, glaukoma, katarakta, shox parda eroziyalari va ko'z yoshi yo'llari patologiyalari kiradi. Ushbu kasalliklarning kelib chiqishida etiologik omillar xilma-xil bo'lib, ular orasida infeksiyon (bakterial, virusli, parazitlar) agentlar, allergik, travmatik, irritatsion, hamda metabolik sabablar muhim o'rin egallaydi.

Kasalliklarning rivojlanish mexanizmi — etiopatogenez — ko'z to'qimalarida kechadigan yallig'lanish jarayonlari, qon va limfa aylanishining buzilishi, epitelij hujayralarining shikastlanishi va immun javobning faollashuvi bilan tavsiflanadi. Natijada ko'z to'qimalarida o'zgarishlar, shish, giperemiya, yiringli ajralmalar va shox parda tiniqligining yo'qolishi kabi belgilar kuzatiladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, O'zbekiston veterinariya amaliyotida itlarning ko'z kasalliklari bo'yicha tizimli tahlillar kam uchraydi, ayniqsa Nukus sharoitida bu boradagi ilmiy ma'lumotlar yetarli emas. Shu boisdan, ushbu ishda itlarda uchraydigan asosiy ko'z kasalliklarining etiopatogenezi, ularning

klirik belgilarini aniqlash, mahalliy sharoitda qo'llanilayotgan davolash usullarini tahlil qilish va profilaktika choralarini takomillashtirish maqsad qilib olindi.

## Materiallar va uslublar

Tadqiqot Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialining klinik bazasida hamda Nukus shahridagi xususiy veterinariya amaliyot markazlarida o'tkazildi. Tadqiqotda turli zot va yoshdagi jami 37 bosh it ishtirok etdi. Hayvonlar orasida erkak va urg'ochi jins vakillari teng miqdorda tanlab olindi.

Ko'z kasalliklarini aniqlashda amaliy sharoitda mavjud diagnostika usullaridan foydalanildi. Ko'z a'zolari tabiiy yorug'likda yoki yorqin sun'iy chiroq ostida ko'zdan kechirildi. Ko'z to'qimalari va qovoqlar oftalmoskop, ko'zoyinakli lupa va cho'zilgan yorug'lik manbai yordamida ko'rildi.

Klinik tekshiruvda quyidagi belgilar baholandi: kon'yunktivaning qizarishi, shish, ko'zdan ajralma chiqishi, shox pardaning tiniqligi, qorachiqqa yorug'lik javobi, hayvonning yorug'likka sezuvchanligi, ko'zning ochilishi va yumulish darajasi, shuningdek ko'z ichi bosimi haqida umumiy tasavvur olish maqsadida ko'z to'qimalarining zichligi palpatsion yo'l bilan tekshirildi.

Tashxisni aniqlashda klinik belgilarga, anamnez ma'lumotlariga va hayvonning umumiy ahvoriga asoslanildi. Ko'z kasalliklari bilan og'rikan itlardan kon'yunktiva yuzasidan surtma olinib, mikroskopda bakteriyalar, epitelij hujayralari va yallig'lanish hujayralari (neytrofillar, limfotsitlar) mavjudligi bo'yicha tahlil qilindi.

Davolashda kasallik turiga qarab quyidagi vositalar qo'llandi:

Kon'yunktivit va keratitda — antibakterial ko'z tomchilari (Ciprofloxacin

0,3%, Tobramycin 0,3%) hamda tetratsiklinli malham;

Blefaritda — yalligʻlanishga qarshi malhamlar (Levomekol, Deksametazonli malham) va antiseptik eritmalar (Furatsillin 0,02%);

Katarakta holatlarida — metabolik terapiya sifatida Taufon, Katalin, vitamin C va B guruh vitaminlari;

Glaukoma holatlarida — antiglakomatoz tomchilar (Timolol maleat, Dorzolamid) hamda zarur hollarda analgetiklar.

Yalligʻlanish ogʻir kechgan holatlarda umumiy yalligʻlanishga qarshi inʼeksiyalar (Deksametazon 0,1 mg/kg yoki Meloksikam 0,2 mg/kg) va immun tizimini mustahkamlovchi vositalar (Gamavit, Vetom) qoʻllanildi. Hayvonlar 7–14 kun davomida veterinariya kuzatuvda boʻlib, davolashning har kuni klinik holat boʻyicha qayd etilib bordi.

Profilaktika choralari hayvonlarning koʻz atrofi gigiyenasiga rioya qilish, changli va issiq muhitda uzoq yurishdan saqlash, koʻzga kirgan mayda zarralarni toza suv bilan yuvish, itlarni oʻz vaqtida yuqumli kasalliklarga qarshi emlash va ularni muvozanatli oziqlantirish kiradi. Shuningdek, egalarga har 3–6 oyda hayvonlarni profilaktik koʻz koʻrigidan oʻtkazish tavsiya qilindi.

### **Natijalar**

Oʻrganilgan 37 bosh it orasida 14 boshda konʼyunktivit (37,8%), 8 boshda keratit (21,6%), 6 boshda blefarit (16,2%), 5 boshda katarakta (13,5%) va 4 boshda glaukoma (10,8%) aniqlandi. Konʼyunktivit bilan ogʻrigan itlarda konʼyunktiva shishgan, qizarib, seroz yoki yiringli ajralma bilan kechgan. Koʻp hollarda bu holat chang, shikastlanish yoki bakterial infeksiya taʼsiri natijasida kuzatildi. Keratitda shox parda loyqalanishi, yorqinlikka sezuvchanlik va koʻzdan koʻp yosh oqishi kuzatildi. Blefaritda qovoq

chetlari qizargan, qichishish va yalligʻlanish bilan kechgan.

Katarakta asosan 6 yoshdan katta itlarda kuzatilib, linzaning oqargani va koʻrishning pasaygani bilan namoyon boʻldi. Glaukoma bilan ogʻrigan itlarda koʻz ichi bosimi oʻrtacha 35–40 mmHg gacha oshgani, koʻzning kattalashgani va hayvonlarda koʻrishning yoʻqolgani qayd etildi.

Davolash samaradorligi boʻyicha oʻtkazilgan tahlillar natijasida konʼyunktivit bilan ogʻrigan hayvonlarda 5–7 kun ichida toʻliq sogʻayish kuzatildi, keratit 10–14 kun ichida tiklandi. Blefarit 4–6 kunda yalligʻlanishning kamayishi bilan yakunlandi. Katarakta va glaukoma holatlarida esa jarrohlik aralashuv tavsiya etilib, ayrim holatlarda koʻrishning qisman tiklanishi qayd etildi.

### **Muhokama**

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, Oʻzbekiston, xususan, Nukus sharoitida itlarda eng koʻp uchraydigan koʻz kasalliklari — konʼyunktivit, keratit, blefarit, katarakta va glaukoma hisoblanadi. Konʼyunktivit holatlari eng yuqori ulushni tashkil qilib, bu koʻp hollarda chang, shamol va tashqi muhit shikastlanishlari bilan bogʻliq ekanligi aniqlangan. Bu natija xorijiy tadqiqotlar bilan mos keladi, masalan Gelatt (2020) va Slatter (2013) ishlarida yalligʻlanishli koʻz kasalliklari itlarda eng koʻp uchraydigan patologiyalar sifatida qayd etilgan, biroq lokal sharoitda atrof-muhit omillarining taʼsiri ancha yuqoriroq ekanligi kuzatildi.

Keratit va blefarit holatlarining koʻp hollarda mexanik shikastlanish va yuqumli omillar bilan bogʻliq ekanligi aniqlanib, bu holatlarda konservativ davolash samaradorligi yuqori boʻldi. Olingan natijalar shuni koʻrsatadiki, itlarda koʻz kasalliklari erta bosqichda aniqlansa, oddiy koʻz tomchilari, malhamlar va antiseptik vositalar bilan toʻliq tiklanish mumkin. Shu

bilan birga, agar kasallik surunkali holga o'tsa yoki diagnostika kech amalga oshirilsa, ko'rish qobiliyatining qisman yoki to'liq yo'qolish xavfi mavjudligi kuzatildi.

Katarakta va glaukoma holatlarida konservativ davolashning cheklangan samaradorligi aniqlangan, bu esa jarrohlik aralashuvini talab qiladi. Shu bilan birga, metabolik terapiya va vitaminli preparatlar kataraktaning rivojlanish sur'atini sekinlashtirishda yordam beradi, glaukoma esa klinik belgilarga qarab antiglakomatoz preparatlar bilan vaqtincha nazorat qilinishi mumkin.

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida itlarda ko'z kasalliklarini samarali nazorat qilish uchun profilaktik choralarga alohida e'tibor qaratish zarur. Jumladan, ko'z atrofini gigiyenik tozalash, chang va qumdan himoya qilish, yuqumli kasalliklarga qarshi o'z vaqtida emlash, muvozanatli oziqlantirish, shuningdek hayvonlarni muntazam veterinariya ko'rigidan o'tkazish kasalliklarning rivojlanishini sezilarli darajada kamaytiradi.

#### **Xulosa**

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston sharoitida itlarda eng ko'p uchraydigan ko'z kasalliklari kon'yunktivit, keratit, blefarit, katarakta va glaukoma hisoblanadi. Bu kasalliklarning kelib chiqishida chang, shamol, quyosh radiatsiyasi, mexanik shikastlanishlar, bakterial va virusli infeksiyalar, shuningdek, yoshga bog'liq o'zgarishlar asosiy etiologik omil bo'lib xizmat qiladi. Davolash jarayonida antibakterial, yallig'lanishga qarshi va antiglakomatoz dori vositalarini qo'llash yuqori samaradorlik berdi. Erta tashxis va o'z vaqtida ko'rilgan davolash choralari hayvonning ko'rish qobiliyatini saqlab qolishga yordam beradi. Ko'z kasalliklarini oldini olishda ko'z atrofi gigiyenasi,

muvozanatli oziqlantirish, emlash tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazish, changli muhitdan himoyalash hamda oftalmologik ko'rikni muntazam amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "A Common Problems of Dog Eyes (A Review)." IOSR Journal of Agriculture and Veterinary Science, 14(7 Ser.II), 19-26. [https://www.researchgate.net/publication/353447032\\_A\\_Common\\_Problems\\_Of\\_Dog\\_Eyes\\_A\\_Review](https://www.researchgate.net/publication/353447032_A_Common_Problems_Of_Dog_Eyes_A_Review)
2. "Keratitis." StatPearls [Internet]. 2022. NCBI Bookshelf. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK559014/>
3. ФАНЛАР, Ў. Р., & БЎЛИМИ, А. М. (2023). Хоразм маъмун академияси ахборотномаси. Вестник Хорезмской академии Маъмуна, 4(2).
4. Xolmuratov, I. (2024). Janubiy Qoraqalpog'istondagi birikmali oykonimlarning o'ziga xos xususiyatlari. IMRAS, 7(3), 140-144.
5. Xolmuratov, I., Eshanova, T., & Xo'jamuratova, A. (2024, November). TALABALARDA MUSTAQIL TA'LIM OLISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14235516>. In International scientific and practical conference (Vol. 1, No. 1, pp. 415-418).
6. Xolmuratov, I. (2023). QORAKO'LCHLIKNI RIVOJLANTIRISHDA JUN MAHSULOTLARINING MUHIMLIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR. Science and innovation, 2(Special Issue 8), 371-374.
7. Холмуратов, И. (2021). Этимологический анализ некоторых ойконимов Южного Каракалпакстана. Электронный инновационный вестник, (2), 23-24.

8. Хакимов З., Уринов У., Саидова М., Нарманов О., Эрназаров Д., Ходжаева З., ... и Очилов Ю. (2025). Биоразнообразие насекомых в Узбекистане: от обширных степей до берегов Каспия – краугольный камень евразийских экосистем. Каспийский журнал экологических наук, 23 (4), 1101-1105.

9. Ниязов Х., Эрназаров Д., Аvezимбетов С., Реджепбаев Дж. С. и Шакилов У. (2025). Различные методы лечения искусственного гнойно-некротического процесса у кроликов. В ВЮ Web of Conferences (том 181, стр. 01007). ЭДП наук.

10. Ernazarov, D. A. (2024, October). The Effect of 10% Blood Herb (Chistotel)(Chelidoii Herba) Ointment and 10% Aloe Extract Ointment on the Inflammation Process. In International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies (ITALY) (Vol. 5, pp. 69-73).

11. Юнусов, Х., Комилжонов, С., & Федотов, Д. (2024). МОРФОЛОГИЯ ЯИЧНИКОВ У КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА В НЕКОТОРЫЕ ВОЗРАСТНЫЕ ПЕРИОДЫ. Вестник Ошского государственного университета. Сельское хозяйство: агрономия, ветеринария и зоотехния, (1), 74-80.

12. Юнусов, Х. Б., Федотов, Д. Н., Васютенок, В. И., Сафаров, А. А., & Комилжонов, С. К. (2022). Основы перепеловодства и повышения яйценоскости птицы.

13. Федотов, Д. Н., Комилжонов, С. К., & Кучинский, М. П. (2019). Структурно-функциональная характеристика яичников у крупного рогатого скота при применении витаминно-минерального препарата «Антимиопатик».

14. Юнусов, Х. Б., & Комилжонов, С. К. (2025). Влияние витаминно-минерального препарата на обмен некоторых минеральных веществ в крови у крупного рогатого скота.

15. Комилжонов, С. К. (2025). Морфологические изменения фолликулярного аппарата яичника крупного рогатого скота при применении витаминно-минерального препарата.

16. Юнусов, Х. Б., & Комилжонов, С. К. (2024). Особенности морфологических изменений яичников при их гипофункции у коров.